“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=328

2025-yil
3-son
oktabr
ISSN 3093-8546



Energetika sohasida yuzaga keladigan korruptsion holatlar va uning oldini olish choralari

Azim Sattarov,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi
Huquqshunos
e-mail: saidiovichazim@gmail.com

Аннотация. Ushbu maqolada energetika sohasining ahamiyati, tizimda yuzaga keladigan korrupsion omillar va oldini olish choralar, huquqbuzarliklar va bartaraf etish masalalari yoritilgan. Shu bilan birga korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarning statistik ma’lumotlari keltirilgan. “Yoqilg‘i-energetika sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish choralarini takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasiga kiritilgan takliflar keltirilgan va ilmiy tahlil natijasida asoslangan.

Калит сўзлар. energetika, huquq, tizim

Аннотация. В статье рассматривается значение энергетической отрасли, вопросы коррупции и правонарушений в системе, обеспечения законности и устранения нарушений. В соответствии с законодательством Республики Узбекистан, в том числе Правилами административной ответственности и Законом «О противодействии коррупции в экономике», приведены статистические данные о преступлениях, связанных с коррупцией.

Ключевые слова. энергетика, право, система

Annotation. The article examines the importance of the energy sector, as well as issues of corruption and violations within the system, ensuring legality, and eliminating offenses. Statistical data on corruption-related crimes are also provided. The analysis is carried out in accordance with the legislation of the Republic of Uzbekistan, including the Rules of Administrative Liability, the Law “On Combating Corruption in the Economy,” and other regulations aimed at improving the Criminal Code and combating violations in the energy sector.

Keywords. energy, law, system

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Energetika sohasi zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy ustunlaridan biri bo‘lib, jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va texnologik taraqqiyotini ta’minlovchi strategik tarmoq sifatida katta ahamiyat kasb etadi. Energiya xavfsizligi va barqarorligini ta’minlamasdan mamlakatning iqtisodiy o‘sishi, sanoat salohiyatining oshishi hamda aholi turmush darajasining yaxshilanishiga erishish qiyin.

Energiya resurslari iqtisodiyot tarmoqlarning barcha bosqichlarida hal qiluvchi rol o‘ynaydi, jumladan, elektr energiyasi ishlab chiqarish korxonalari, transport tizimi, qishloq xo‘jaligi va xizmat ko‘rsatish sohalari faoliyatining uzluksizligini ta’minlaydi. Shu jihatdan, energetika tarmog‘ining samaradorligi mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini belgilaydigan muhim omillardan biri hisoblanadi.

So‘nggi yillarda energetika tizimini modernizatsiya qilish va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish masalasi global ahamiyat kasb etib, quyosh, shamol, gidro va biomassa kabi qayta tiklanuvchi manbalardan samarali foydalanish nafaqat energiya ta’minotining barqarorligini ta’minlaydi, balki atrof-muhitni muhofaza qilishga va SO2ni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada energetika tizimining ekologik jihatdan toza va uzoq muddatli istiqbolga erishishiga imkon yaratadi.

Bundan tashqari, energetika sohasi mamlakat milliy xavfsizligi va iqtisodiy mustaqilligining muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Energiya resurslarini oqilona boshqarish, tejamkorlik va samaradorlikni oshirish, sohani innovatsion texnologiyalar yordamida raqamlashtirish va ichki energiya salohiyatini rivojlantirish davlatning tashqi ta’sirlarga bo‘lgan ehtiyojini kamaytiradi. Energetika davlat iqtisodiyotining asosiy drayveri hisoblanib yuqori qiymatdagi davlat byudjeti va investitsiya mablag‘larini talab etganligi uchun korrupsion omillarning paydo bo‘lish ehtimoli mavjud.

Korrupsiya odatda bir nechta murakkab omillardan kelib chiqadi va ijtimoiy, iqtisodiy va institutsional jihatlar bilan tahlil qilinadi: qonun ustuvorligi va nazoratning zaifligi; moliyaviy resurslar turi va hajmining kattaligi; shaffoflik va ochiqlikning pastligi; institutsional va kadrlar salohiyatining pastligi; siyosiy va manfaatlar to‘qnashuvi mavjudligi; ijtimoiy va madaniy omillar yuzaga kelishi. Qonun ustuvorligi va nazoratning zaifligi sababli davlat organlari va audit tizimlari yetarlicha mustaqil va samarali ishlamasligi oqibatida yuzaga keladi. Natijada moliyaviy va texnik qarorlar korrupsiyaga yo‘l ochib beradi. Tenderlar, litsenziyalar va investitsiya loyihalarini nazorat qilish mexanizmlari sustligidan manfaatlar to‘qnashuvi va suiiste’mol masalalari yuzaga keladi.

Moliyaviy resurslar hajmining kattaligi tufayli energetika sohasi yuqori qiymatdagi davlat byudjeti va xususiy investitsiya mablag‘larini talab qiladi. Bu mablag‘lar hisobiga suiiste’mol qilish, firibgarlik yoki pora olish kabi korrupsion holatlar yuzaga kelish ehtimoli kuchayadi.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Shaffoflik va ochiqlik darajasining pastligi natijasida loyiha ma’lumotlari, tender natijalari va kontrakt shartlari jamoatchilik uchun yopiq holatda qolib ketadi, korrupsiya yuzaga kelishi osonlashadi. Xususiy sektor va davlat manfaatlari bilan bog‘liq kelishuvlar yashirin ravishda amalga oshishi yuzaga keladi. Institutsional va kadrlar salohiyati darajasining pastligi oqibatida energetika sohasida malakali kadrlar tanqisligi hamda mutaxassislar va auditorlarning yetishmasligi yuzaga kelib korrupsiya xavfini oshiradi. Xodimlarning noto‘g‘ri qaror qabul qilishi yoki mas’uliyatsizligi tufayli resurslar noto‘g‘ri taqsimlanadi. Siyosiy va manfaatlar to‘qnashuvi natijasida korrupsiyaning asosiy sabablaridan biri hisoblangan davlat va xususiy sektorlar orasida lobbizm, siyosiy ta’sir va xususiy manfaatlarni qonuniylashtirish oqibatlari yuzaga keladi. Loyiha va litsenziyalarning siyosiy ta’sir ostida yoki korrupsiya holatida tasdiqlanishiga olib keladi. Ijtimoiy va madaniy omillar korrupsiya bilan bog‘liq ijtimoiy qarashlar va odatiy harakatlar orqali sohada korrupsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Fuqarolar va huquqiy tartibot organlarining nazorati kuchsiz bo‘lishi korrupsiyani ochiq qoldiradi.

Bunday korrupsion holatlar nafaqat shaxslar, balki butun jamiyat uchun halokatli oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin. Korrupsiyaning oldini olish esa davlat xizmatiga professional va fidoyi kadrlarni tanlash hamda ularni “halollik vaksinasi” bilan emlashdan boshlanadi.

Korrupsiyaga qarshi kurash nafaqat huquqiy va iqtisodiy, balki mafkuraviy va axloqiy asoslarda ham olib borilishi lozim. Shuning uchun rivojlangan davlatlarda “ishonch va shaffoflik” kontseptsiyasi davlat boshqaruvining asosiy qadriyati sifatida qabul qilingan. Bu siyosat energetika tizimi uchun ham to‘la mos keladi va korrupsion holatlarning oldini olishda xizmat qilib, O‘zbekiston uchun muhim ilmiy va amaliy xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda mansabdor shaxslar va boshqa holatlar yuzasidan sodir etilgan korrupsiyaviy jinoyatlarga to‘xtalib o‘tamiz. 2023-yilda ishga joylashish bilan bog‘liq 181 ta va bank kreditlarini ajratish bilan bog‘liq 326 ta holat bo‘yicha korrupsiya bilan aloqador jinoyatlar yuzaga kelgan. Jinoyiy javobgarlikka tortilgan shaxslardan 12 nafari respublika darajasidagi davlat tashkilotlarida, 319 nafari viloyat darajasida va 5024 nafari tuman va shahar darajasida ishlagan. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatchilik darajasi 10 ta hududda kamaygan bo‘lsa, afsuski 4 ta hududda oshgan. Korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar ko‘paygan hududlar qatoriga Surxondaryo (9,9%), Andijon (6,4%), Sirdaryo (2,8%) va Navoiy (1,3%) kiradi.

Jinoyiy faoliyat tahlili shuni ko‘rsatdiki, ilgari sudlangan va davlat xizmatiga qabul qilingan shaxslarning qayta jinoyat sodir etish ehtimoli yuqori. 2023-yilda jami 1146 nafar ilgari sudlangan shaxs korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan, jumladan, 566 nafari shunga o‘xshash jinoyatlar uchun ilgari sudlangan. Bosh prokuratura davlat xaridlarida aniqlangan qonunbuzarliklarni

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

bartaraf etish bo‘yicha 275 ta taklif kiritgan. Bundan tashqari, 393 ta jinoyiy ish qo‘zg‘atilgan, 25 ta noqonuniy hujjat qonunga muvofiqlashtirilgan va 1219 nafar shaxs ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

Davlat xavfsizlik xizmati boshqa huquqni muhofaza qilish organlari bilan hamkorlikda 2023-yilda poraxo‘rlik uchun 1290 ta hibsga olishni amalga oshirdi. Hibsga olishlar quyidagicha taqsimlangan:

Ijro hokimiyati, makroiqtisodiyot, tashqi iqtisodiy va investitsiya faoliyati, bank, moliya, sanoat, qurilish, uy-joy, kommunal xizmatlar, yoqilg‘i, energetika va qishloq xo‘jaligida 517 ta hibsga olish.

Ta’lim, sport va o‘zini o‘zi boshqarish sohalarida 221 ta hibsga olish. Huquq muhofazasi, sud va nazorat organlarida 197 ta hibsga olish. Sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalarida 160 ta hibsga olish. Transport sohasida 100 ta hibsga olish.

Bojxona qonunchiligini buzganlik uchun 95 ta hibsga olish. Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti jami 3996 ta korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlarni aniqladi. Ulardan 3942 tasi jinoyiy, 54 tasi esa ma’muriy ishlar edi. Ushbu jinoyatlarning 1382 tasi poraxo‘rlik bo‘lib, 395 tasi davlat organlari va tashkilotlari mansabdor shaxslari tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri poraxo‘rlik bilan bog‘liq.

Ichki ishlar vazirligining Korrupsiya va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti va uning hududiy bo‘linmalari tomonidan korrupsiya, iqtisodiy huquqbuzarliklar va davlat boshqaruviga qarshi qonunbuzarliklar bilan bog‘liq 2800 dan ortiq jinoyatlar aniqlandi. Bu ishlar quyidagicha tasniflandi: Agrosanoat sohasida 467 ta jinoyat, Yoqilg‘i-energetika sohasida 304 ta jinoyat, Ijtimoiy sohada 289 ta jinoyat, Kichik va o‘rta biznesda 148 ta jinoyat, Nazorat qiluvchi organlarda 122 ta jinoyat, Davlat idoralarida 80 ta jinoyat, Istemol bozorida 58 ta jinoyat, Bank, moliya va kredit sohalarida 46 ta jinoyat, Sanoat sohasida 22 ta jinoyat, Xorijiy kompaniyalar va qo‘shma korxonalarda 13 ta jinoyat, Huquqni muhofaza qilish organlarida 10 ta jinoyat, Sud sohasida 1 ta jinoyat va boshqa sohalarda taxminan 1300 ta jinoyat sodir etilgan.

Energetika sohasidagi korrupsiya iqtisodiyotni falaj holatga keltiradi, ishlab chiqarish sifati va kelgusi avlodning orzulari va kelajagiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, mamlakatimiz rivojlanishiga to‘sqinlik qiladigan illatdir. Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Korrupsiyaga qarshi kurashish uchun jamiyatning barcha qatlamlari jalb etilmasa va “halollik vaksinasi” joriy etilmasa, yuksak marralarga erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun oqibatlar bilan kurashishdan ko‘ra, uning oldini olishga ahamiyat qaratish lozim”.

Xususan, sohibqiron Amir Temur halollik, rostlikni ichki va tashqi siyosatni yuritishda, oila tarbiyasida, dinu diyonatga rioya etishda bosh qadriyat deb bilganlar. Temur tuzuklarida “Rosti rusti”, degan yozuv ham “Kuch to‘g‘rilikdadir”, degan ma’noni ifoda etgan. Jumladan, ulug‘ ajdodlarimiz hukmronligidagi davlatlarda ilm-fan, san’at, hunarmandchilik, bunyodkorlik rivojiga aynan halollik va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

adolat omillari keng yo‘l ochgan.

Tadqiqotchi Kaunain Rahman Gana misolida energiya sohasidagi korrupsiya va oldini olish choralari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borgan. Uning tahlillari biznes olamida energetika bilan bog‘liq korrupsiyaning xavf-xatarlari iqtisodiyotga salbiy ta’sir ko‘rsatishini asoslaydi. Uning fikriga ko‘ra yirik davlat kompaniyalarining bozorda ustunligi orqali raqobatni cheklash va shaxsiy manfaatlarni himoya qilish hamda lavozimlarga malakali mutaxassislar o‘rniga tanishlar yoki siyosiy aloqador shaxslar tayinlanishining oqibati inqirozga yo‘l ekan. Ziya A. o‘z taqdiqotlarida yashil energiyaga o‘tish jarayonida korrupsiya va boshqaruv sifatining o‘rnini tahlil qilib, “yashil energiya”, “energetika tranziti” va “korrupsiya” bog‘lanishlari salbiy oqibatlarining iqtisodiyotga zarba ekanligini isbotlagan.

Milliy qonunchilikka ko‘ra, korrupsiyaviy xavf-xatarlar korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradigan yoki tarqalishiga hissa qo‘shadigan hodisalar yig‘indisi sifatida baholanadi.

Mamlakatimizda pora olish uchun javobgarlik va jinoyat qonunchiligini takomillashtirish bo‘yicha bir qancha tadqiqotlar olib borilgan. Yuqoridagilarni inobatga olib energetika sohasida korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish hamda energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish sohasidagi ishlarni tizimli ravishda yo‘lga qo‘yish, shuningdek ushbu sohada ta’sirchan davlat nazoratini ta’minlash borasida keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Korrupsion huquqbuzarliklarning oldini olish bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish, shuningdek elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, gazdan yoqilg‘i yoki xomashyo sifatida foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikka tortish choralarini takomillashtirish zaruriyati yuzaga kelmoqda. Jumladan, “Yoqilg‘i-energetika sohasidagi huquqbuzarliklarga qarshi kurashish choralari takomillashtirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga hamda O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni loyihasiga takliflar ishlab chiqildi. Mazkur qonun O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksiga elektr, issiqlik energiyasidan, gaz va vodoprovoddan foydalanish qoidalarini buzganlik uchun jazo choralarini kuchaytirilishini nazarda tutadi, O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga esa huquqni qo‘llash amaliyotidagi noaniqliklarni bartaraf etishga, yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan yoqilg‘i-energetika resurslari bilan bog‘liq huquqbuzarliklar sodir etilishining oldini olishga hamda bunday huquqbuzarliklar uchun jazo choralarining ta’sirchanligini oshirishga qaratilgan o‘zgartirishlarga taklif kiritildi.

Mazkur qonun loyihasi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Elektr energiyasi, neft mahsulotlari va

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

gazdan foydalanishni nazorat qilish inspeksiyasi vakolatlarini kengaytiradi. Ushbu qonun loyihasining ishlab chiqilishiga quyidagilar zaruriyat asos yaratdi:

Inspeksiyaning ma’muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risida bayonnoma tuzishga oid vakolatlari aniq belgilanmaganligi;

elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflashga oid ma’muriy huquqbuzarliklar bo‘yicha Ichki ishlar organlari, Milliy gvardiya, Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlariga bayonnoma rasmiylashtirish vakolatlari berilmaganligi;

energiya resurslaridan qonunga xilof ravishda foydalanish hamda tabiiy gaz va elektr energiyasidan foydalanish qoidalariga rioya qilmaslik uchun javobgarlik choralarini qayta ko‘rib chiqish zaruriyati mavjudligi;

huquqni qo‘llash amaliyotida yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan elektr va issiqlik energiyasini behuda sarflash, gazdan yoqilg‘i yoki xom ashyo sifatida foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan huquqbuzarliklar sodir etish holatlari tobora ko‘plab aniqlanayotganligi.

Biroq, amaldagi qonunchilikka muvofiq ushbu huquqbuzarliklar subyekti sifatida faqat mansabdor shaxslar nazarda tutilgan bo‘lib, huquqiy jihatdan tadbirkorlik faoliyatining yangi formasi bo‘lgan Yakka tartibdagi tadbirkorlar tegishli moddalarning dispozitsiyasida ko‘rsatilgan huquqbuzarliklarni sodir etayotgan bo‘lsa-da, ularni javobgarlikka tortishning huquqiy mexanizmlari mavjud emas.

Ma’lumot uchun aytish mumkinki, Hukumatning 31.05.2024-yildagi 319-son qaroriga muvofiq, yakka tartibdagi tadbirkorlar 2-guruh iste’molchisi hisoblanadi hamda ular iste’mol miqdoridan qat’iy nazar bir xil narxda (900 so‘m) to‘lovni amalga oshiradi. Bu holat o‘z navbatida yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan energiya resurslaridan samarasiz, ishlab chiqarish maqsadlarisiz xo‘jasizlarcha foydalanishga zamin yaratmoqda.

2024-yilda elektr energiyasidan nooqilona foydalanish bilan bog‘liq 8 654 ta holat aniqlanib, 16 ming kVt.s elektr energiyasining behuda sarfi oldi olingan va 1 279 ta ma’muriy bayonnoma rasmiylashtirilgan.

Qolgan 7 375 ta holat yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan sodir etilganligi sababli ularni javobgarlikka tortish imkoni bo‘lmagan.

Bundan tashqari, Qonun loyihasi bilan o‘zgartirish kiritilayotgan moddalar bo‘yicha sodir etilgan huquqbuzarliklarning o‘sish dinamikasiga qaraladigan bo‘lsa, 2023-yilda Jinoyat kodeksining 1852-moddasi bilan 41 ta holatda javobgarlik belgilangan, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 97 tani tashkil qilgan, ya’ni 236,5 foizga o‘sgan, Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 61-moddasi bo‘yicha huquqbuzarlik yuqorida ko‘rsatilgan davrda 261,1 foizga, 100-moddasi bo‘yicha 1216,8 foizga, 103-moddasi bo‘yicha esa 1166,2 foizga o‘sgan.

Bu esa, sohada huquqbuzarliklarni aniqlash ko‘rsatgichi o‘sganligi emas, balki haqiqatdan ham qo‘llanilayotgan javobgarlik

choralari yetarli darajada ta’sirchan emasligi tufayli huquqbuzarlik soni oshib ketganligidan dalolat beradi.

Shu bois, huquqni qo‘llash bilan bog‘liq muammolarni bartaraf etish maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi va Jinoyat kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish zaruriyati paydo bo‘ldi.

Qonun loyihasining asosiy qoidalari mazkur qonun loyihasi bilan:

Inspeksiyani yoqilg‘i-energiya resurslari bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning barcha toifasi bo‘yicha vakolatlarini aniq belgilash;

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 100 va 103-moddalari nazarda tutilgan huquqbuzarliklar subyekti sifatida Yakka tartibdagi tadbirkorlarni ham qamrab olish;

Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksning 100-moddasi “yoritish uchun elektr energiyasidan xo‘jasizlarcha foydalanish qismi bo‘yicha” ma’muriy bayonnomalar rasmiylashtirish vakolatlarni Ichki ishlar organlari profilaktika inspektorlari hamda Favqulodda vaziyatlar vazirligi inspektorlariga taqdim qilish;

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi hamda Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish orqali yoqilg‘i-energetika sohasida sodir etilgan huquqbuzarliklar uchun javobgarlikni kuchaytirish nazarda tutilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, energetika sohasi jamiyat taraqqiyotining asosiy drayveri sifatida strategik ahamiyatga ega. Uning barqaror rivojlanishi iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, ekologik muvozanatni saqlash va aholi farovonligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bois, ilmiy-texnikaviy innovatsiyalar asosida energetika infratuzilmasini takomillashtirish har bir mamlakatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga Murojaatnomasi, 20.12.2022// https://president.uz/uz/lists/view/5774.

2. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. (Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son).

3. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // https://lex.uz/docs/111460#255302.

4. O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonuni // https://www.lex.uz.

5. O‘zbekiston Respublikasining Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi // https://www.lex.uz/acts/97664.

6. O‘zbekiston Respublikasining 07.08.2024-yildagi “Energiyani tejash, undan oqilona foydalanish va energiya samaradorligini oshirish to‘g‘risida”gi O‘RQ-940-son Qonuni. Elektron manba: https://www.lex.uz/ru/docs/7052085.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 13-fevraldagi “Yoqilg‘i-energiya resurslaridan foydalanish sohasida davlat nazorati

samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-54-son qarori // https://lex.uz/ru/docs/6384162.

8. Doktrina Energeticheskoy bezopasnosti Rossiyskoy Federatsii, utverjdennaya Ukazom Prezidenta RF ot 13 maya 2019 g. №216 // http://www.scrf.gov.ru/security/yeconomic/yenergy_doc/.

9. Konsepsiya Energeticheskoy bezopasnosti Respublika Belarus, utverjdennaya Postanovleniyem Soveta Ministrov Respubliki Belarus ot 23.12.2015 g. №1084 // https://lida.gov.by/ru/kontseptsija-yenergeticheskoj-bezopasnosti-rb/

10. O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi va soha mutaxassislari tarkibida tuzilgan Ishchi guruh tomonidan Toshkent shahri, Toshkent, Farg‘ona, Namangan va Andijon viloyatlarida yirik iste’molchilarda energiya samaradorligini oshirish va noqonuniy ulanishlarni bartaraf etish borasidagi ishlar ahvolini o‘rganish natijalari.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb sayti. https://president.uz/uz/lists/view/4948